12. Karayeva F. IJODKOR SHAXSNING BADIIY DID VA AXLOQIY MADANIYATI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 15.
13. Madrimov Q. O ‘ZBEK REJISSURASI VA AKTYORLIK MAKTABLARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 15.
14. Махмудова Хамида Ахюловна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА // International scientific review. 2020. №LXXIV. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-podgotovki-kadrov-v-sfere-kultury-i-iskusstva (дата обращения: 07.01.2025).

REZYUME. Ushbu maqolada O‘zbekiston Mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram dasturining ssenariyaviy tuzilishi va badiiy ifoda vositalari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda she’riy matnlar, musiqiy kompozitsiyalar, ramziy timsollar va hududiy folklor namunalarining Yangi O‘zbekiston g‘oyasini ochib berishdagi o‘rni yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье с научной точки зрения анализируются сценарная структура и художественно-выразительные средства торжественной праздничной программы, посвященной 34-летию Независимости Узбекистана. В исследовании освещается роль поэтических текстов, музыкальных композиций, символических образов и образцов регионального фольклора в раскрытии идеи «Нового Узбекистана».

SUMMARY. This article provides a scientific analysis of the script structure and artistic expressive means of the solemn festive program dedicated to the 34th anniversary of the Independence of Uzbekistan. The research highlights the role of poetic texts, musical compositions, symbolic imagery, and regional folklore samples in revealing the concept of "New Uzbekistan."

YANGI O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’AT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHLARI

Saparbaeva Gulshira Abatbaevna – *docent*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, madaniyat siyosati, san’at taraqqiyoti, madaniy meros, raqamli madaniyat, kreativ industriya, xalqaro hamkorlik.

Klyuchevıe slova: Novıy Uzbekistan, kulturnaya politika, razvitie iskusstva, kulturnoe nasledie, cifrovaya kultura, kreativnaya industriya, mejdunarodnoe sotrudnichestvo.

Key words: New Uzbekistan, cultural policy, art development, cultural heritage, digital culture, creative industry, international cooperation.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san’at sohasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish, milliy o‘zlikni anglash, yosh avlodni vatanparvarlik va estetik ruhda tarbiyalashda madaniyatning o‘rni beqiyosdir. So‘nggi yillarda mazkur sohada tub islohotlar amalga oshirilib, madaniyat va san’at taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichi boshlab berildi. “Har qanday san’atning maqsad-mohiyati, bosh vazifasi-insonga insonligini anglatib turishdan, uni ezgulik ruhida tarbiyalashdan iborat bolishi kerak. Shu ma’noda, biz, avvalo, milliy o‘zligimizni chuqur anglab, san’atimiz, madaniyatimiz, adabiyotimizni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish orqali jamiyatimizni, bolalarimizni mavkuraviy huumlardan asrashimiz mumkin”[1]. Madaniyat sohasidagi institutsional islohotlar jarayonini amalga oshirih borasida Yangi O‘zbekistonning rivojlanish davrida madaniyat va san’at taraqqiyoti davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Madaniyat vazirligi faoliyati takomillashtirildi, hududlarda madaniyat markazlari, san’at maktablari va ijodiy muassasalar faoliyati kengaytirildi.

“Bugun mamlakatimiz va xalqimiz oldida yangi vazifalar, Yangi O‘zbekistonni barpo

etish, Uchinchi Renessans poydevorini qurishdan iborat ulkan maqsadlar turibdi. Bu – murakkab vazifa, biroq, xalqimizning aql-zakovati, to‘plangan boy hayotiy tajribasi bilan o‘z maqsadimizga albatta erishamiz” [2]. Shuningdek, teatr, kino, musiqa va tasviriy san’at sohalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etildi. Davlat grantlari va ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi. Bu esa ijodiy erkinlik va professional o‘sishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Milliy madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish jarayonida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, tarixiy obidalarni saqlash va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari milliy merosni asrash bilan birga, turizm salohiyatini ham oshirmoqda.

Nomoddiy madaniy meros – xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an’anaviy musiqa va hunarmandchilik yo‘nalishlari davlat himoyasiga olinib, ularni yosh avlodga yetkazish tizimi takomillashtirilmoqda. San’atning zamonaviy yo‘nalishlari va kreativ industriya qilinishida, yangi bosqichda san’atning an’anaviy turlari bilan bir qatorda zamonaviy yo‘nalishlar – dizayn, media san’at, kinoindustriya, estrada, moda va kreativ tadbirkorlik rivojlanmoqda. Kreativ industriya iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Kino sohasida milliy filmlar ishlab chiqarish hajmi oshib, xalqaro kinofestivallarda o‘zbek kinematografiyasining nufuzi ortmoqda. Raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar jarayononig amalga oshirilishida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi madaniyat va san’at sohasiga ham chuqur kirib kelishi ushbu sohaning taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muzeylar, kutubxonalar va arxiv fondlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilib xalqning madaniyat mahsulotlaridan ma’lumotlar olishida uning zamonaviy usullaridan foydalanish uchun imkoni yaratilmoqda. Masalan, onlayn ko‘rgazmalar tayorlash, virtual ekskursiyalar tashkil etish va raqamli platformalar orqali madaniy xizmatlardan keng foydalanish jarayonlari e’tiborga sazovardir. Bu jarayon yoshlar ongiga milliy madaniy qadiriyotlarni singdirish va saqlash va uni global miqyosda targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiya muhim o‘rin tutmoqda. Xalqaro festivallar, ko‘rgazmalar, san’at anjumanlari va madaniyat kunlari orqali O‘zbekistonning boy madaniyati dunyo hamjamiyatiga namoyish etilmoqda. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar milliy madaniyatning global maydondagi nufuzini oshirmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida madaniyat va san’at taraqqiyoti yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Institutsional islohotlar, milliy merosni asrash, kreativ industriya rivoji, raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlik mazkur sohaning barqaror taraqqiyotini ta’minlamoqda. Madaniyat va san’atni rivojlantirish nafaqat ma’naviy yuksalish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. XXI asrning globallashuv jarayonlari sharoitida har bir davlatning barqaror taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy yutuqlarga, balki uning madaniy va ma’naviy salohiyatiga ham bevosita bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Chunki madaniyat - millatning o‘zligini namoyon etuvchi, tarixiy xotirasini asrovchi va kelajak avlodni tarbiyalovchi muhim omildir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Davlat siyosati darajasida madaniyatni qo‘llab-quvvatlash, ijodkorlar faoliyati uchun keng sharoitlar yaratish, tarixiy-madaniy merosni asrash hamda jahon hamjamiyatiga tanitish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at taraqqiyotining yangi bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, unda madaniyat va san’atni rivojlantirish alohida yo‘nalish sifatida

belgilangan. Bu quyidagi ustuvor vazifalarda namoyon bo‘ladi:

- madaniy meros obyektlarini asrash va restavratsiya qilish;
- teatr, musiqa, tasviriy san’at, kinematografiya kabi sohalarni modernizatsiya qilish;
- yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash;
- madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- milliy qadriyatlarni targ‘ib etish.

Madaniyat siyosati endilikda faqat an’anaviy saqlash vazifasini emas, balki innovatsion rivojlanish, kreativ iqtisodiyot elementlarini joriy etish vazifasini ham bajaradi. Bu esa madaniyatni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylantirmoqda. Yangi O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarning obidalarini restavratsiya qilish, ularni xalqaro turizm markazlariga aylantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Madaniy merosni asrash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Masalan, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya qilish, qo‘lyozmalar va noyob manbalarni saqlash, nomoddiy madaniy merosni (maqom, baxshichilik, hunarmandchilik) rivojlantirish, muzeylar faoliyatini modernizatsiya qilish.

Nomoddiy madaniy merosning UNESCO ro‘yxatiga kiritilishi milliy san’atning xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu islarning amaldagi faoliyatni sifatida “Qoraqalpoq qo‘bizini yasash va unda ijro etish san’ati rasman YUNESKO ning 2025 yil YUNESKO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish hukumatlararo qo‘mitasining 20-sessiyasi ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan ma’qullanligi va muhim voqea O‘zbekistonning maqsadli sa’y-harakatlari natijasi bo‘lib, Qoraqalpog‘istonning noyob madaniy an’anasi xalqaro miqyosda e’tirof etilganini yaqqol namoyish etmoqda. Qo‘biz san’ati O‘zbekistonning YUNESKO ro‘yxatlariga kiritilgan madaniy meros elementlari sonini o‘n oltitaga yetkazdi. Bu esa mamlakatimizning qadimiy sivilizatsiya va boy madaniyatning xalqaro markazlaridan biri sifatidagi maqomini tasdiqlamoqda”[3]. Teatr san’ati Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So‘nggi yillarda yangi teatr binolari qurilnib va qayta tamirlash ishlari faqat inson ma’naviyatining yuksalishiuchun xizmat qilishiga qaratilgan. Teatr saxnalari uchun repertuar siyosati yangilanib, zamonaviy sahnaviy texnologiyalarning joriy etilishi yosh rejissyor va aktyorlarni tayyorlash tizimining takomillashtirilishiga ta’sirchanlikni oshirmoqda. Musiqa san’atida milliy estrada, akademik musiqa va an’anaviy maqom san’ati uyg‘unligi rivojlanib, xalqaro musiqa festivallari, jumladan, maqom anjumanlari milliy san’atni jahon sahnasiga olib chiqmoqda. Yangi bosqichda milliy kinematografiya rivoji uchun huquqiy va moliyaviy asoslar mustahkamlandi. Tarixiy va zamonaviy mavzulardagi filmlar ishlab chiqarish hajmi oshmoqda. Kino san’ati orqali milliy tarix, qahramonlar obrazlari va ma’naviy qadriyatlar targ‘ib qilinmoqda. Ma’naviy yuksalish sari olg’a intilishlar tasviriy san’at va haykaltaroshlik sohasida ham ijodiy erkinliklar uchun keng imroniyatlar berilmoqda. Bunda, rassomlar uchun ko‘rgazma zallari, ijod uylari, grant loyihalar boyicha tizimli faoliyatlar yo‘lga qo‘yildi. Zamonaviy san’at galereyalari yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashda shet el tajriybalari asosida bir qancha ishlarni amalga oshrmoqda. Madaniyat va san’at sohasida raqamlashtirish jarayonlari - raqamli texnologiyalarning taraqqiyotida yangi bosqichini boshlab berdi. Xususan:

- muzey eksponatlarini raqamlashtirish;
- elektron kutubxonalarni yaratish;
- onlayn teatr va konsert platformalarini yo‘lga qo‘yish;
- virtual ekskursiyalarni tashkil etish.

Bu jarayonlar madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, aholi uchun ochiqlik va shaffoflikni ta’minlamoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar — strategik resurs sifatida e’tirof etiladi. Madaniyat va san’at orqali yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ijod maktablari, san’at maktablari, musiqa va tasviriy san’at yo‘nalishidagi maxsus ta’lim muassasalari faoliyati kengaytirildi. Yosh ijodkorlar uchun davlat grantlari, stipendiyalar, tanlov va

festivallar, xalqaro almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa yangi iste’dodlarning yuzaga chiqishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro madaniy hamkorlik- Yangi bosqichda O‘zbekistonning xalqaro madaniy aloqalari sezilarli darajada kengaydi. Xorijiy davlatlar bilan qo‘shma ko‘rgazmalar, teatr gastrollari, madaniyat kunlari, xalqaro festivallar tashkil etilmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning jahon madaniy makonidagi nufuzini oshirmoqda.

Madaniyat va kreativ iqtisodiyot sohasida bugungi kunda madaniyat nafaqat ma’naviy, balki iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Kreativ iqtisodiyot tushunchasi doirasida, dizayn, moda, kino industriyasi, reklama va media, IT va san’at integratsiyasi rivojlanmoqda. Bu sohalar yangi ish o‘rinlari yaratib, yoshlar tarbiyasida ahamiyat kasb etib mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, globallashuv va milliy o‘zlikni saqlash masalasida milliy madaniyatni asrab-avaylash dolzarb vazifadir hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish tamoyili ilgari surilmoqda.Uning uyg‘unligi an’anaviy san’atni modern talqinda namoyish etish, milliy libos va dizaynni zamonaviylashtirish, xalq og‘zaki ijodini raqamli formatda targ‘ib qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at taraqqiyoti sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Islohotlar natijasida madaniyat sohasi nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki iqtisodiy va innovatsion ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy merosni asrash, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va raqamlashtirish jarayonlari madaniyat taraqqiyotining muhim omillaridir. Kelgusida madaniyat va san’atni rivojlantirishda, milliy o‘zlikni mustahkamlash, jamiyat ma’naviy salohiyatini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladigan tamoyillari Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim tayanchi sifatida madaniyat va san’atni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. O‘zbekiston нашриёти, 2023. 128 бет.
2. Абухалил.Маврулов. Ўзбекистон маданияти тарихи. Тошкент Shafoat Nur Fayz 2025.
3. https://yuz.uz/uz/news/
4. Haydarov A. “Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari” Oquv qollanma -T. 2019.
5. Xolmominov M. “Milliy madaniyat-renessans poydevori” Monografiya. 2024.

REZYUME. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati hamda taraqqiyotning yangi bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy madaniy merosni asrash, zamonaviy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish, raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlik masalalari ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

REZYUME. V dannoy state analiziruyutsya reformı, osushestvlyaemıe v sfere kulturı i iskusstva v usloviyax Novogo Uzbekistana, ix sushnost i soderjanie, a takje novıe etapı razvitiya. Takje budut nauchno osveshenı voprosı soxraneniya nacional’nogo kulturnogo naslediya, razvitiya sovremennıx napravleniy iskusstva, processov cifrovizacii i mejdunarodnogo sotrudnichestva.

SUMMARY. This article analyzes the reforms being implemented in the field of culture and art in the context of New Uzbekistan, their essence and content, as well as new stages of development. Also, issues of preserving national cultural heritage, developing modern art trends, digitalization processes, and international cooperation are covered from a scientific point of view.